Garov vositalaridan foydalanish qarz beruvchi va qarz oluvchi munosabatlariga yangi xavotirlarni tug'dirdi, ularning defolt riskiga yakuniy ta'siri aniq belgilanmaganligidir (José, 2018). Agar bankdan kredit olgan mijoz kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa garovga qo'ygan ta'minotdan mahrum bo'lishi mumkin, o'z navbatida tijorat banklari uchun kredit riski oshib ketadi.

Bank tomonidan berilgan kredit riskining xavfsiz darajasini ta'minlash maqsadida kredit oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs turli shakldagi mol-mulklarni garov ta'minoti sifatida banklarga taqdim etadi. Umumiy holda bank krediti bo'yicha garov ta'minotini baholash jarayonida uchta tomon ishtirok etadi va ular bank, baholovchi tashkilotlari va kredit oluvchilardir (Abdikarimova, 2018). Bu jarayonda garov ta'minoti asosan dastlab kredit berish jarayonida qarab chiqiladi.

Rossiya adabiyotlarida ayrim mualliflarning ta'kidlashicha, muammoli kredit deganda obyekti, subyekti va ta'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan kredit tushuniladi (Lavrushina, 2002). Ularning qarashlaricha, nostandart, dargumon va ishonchsiz kreditlarni, ya'ni muddati o'tmagan joriy kreditlardan tashqari barcha kreditlar, shu jumladan asosiy to'lov hamda kredit foizlari bo'yicha qisqa muddatli bo'lsa ham qarzdorlikka ega bo'lgan, shuningdek, kredit shartnomasi shartlarini o'zgartirmasdan hech bo'lmasa bir marotaba qayta rasmiylashtirilgan kreditlar muammoli deb tushuniladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy muammolarini tijorat banklari kreditlari orqali bartaraf etishning quyidagi ijobiy natijalari jumladan, mamlakat YaIM hajmi oshishi, aholi daromadlari ko'payishi va aholi bandligi darajasi oshishiga ijobiy ta'sir etishi aniqlandi. Buning uchun davlat statistika qo'mitasining oxirgi 10 yillik ma'lumotlaridan foydalanib, mamlakatda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarida band bo'lgan aholi soni va tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi aynan tadbirkorlik subyektlari ulushiga o'zaro bog'liqligining korrelyatsion-regression tahlillari amalga oshirildi.

Tanlanma korrelyatsiya koeffitsientiga ko'ra, tadbirkorlik subyektining YaIMdagi salmog'iga mazkur sohada band bo'lganlar sonining ta'sirchanligi yuqori bo'lib, R=0,9597 ga tengligi hamda tadbirkorlik subyektining YaIMdagi salmog'iga tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan bank kreditlarining ta'sirchanligi ham yuqori ya'ni R=0,7686 ga tengligi aniqlandi.

Regression tahlillardan quyidagi xulosalarni keltirib o'tish mumkin: faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ktlarida ish bilan band bo'lganlar sonining 1 foiz punktga oshirilishi YaIM dagi tadbirkorlik subyektlari salmog'ining 8.056 foizga oshishiga olib keladi.

Maqolada ilmiy mushohada, guruhlash, qiyosiy va tarkibiy tahlil, statistik guruhlash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, iqtisodchi olimlarning kredit ta'minoti va uni hisobga olishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Banklar boshqa kreditorlarga nisbatan riskni cheklashga ko'proq harakat qilishi zarur. Chunki ular o'z mablag'laridan emas, balki o'z kreditorlarining, ya'ni omonatchilari va boshqa manfaatdor tomonlarning mablag'lari hisobidan kredit ajratadi. Shuning uchun bank o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida ijro etishi riskni qanchalik darajada muvaffaqiyatli baholashga bog'liq bo'ladi. Boshqa ayrim iqtisodchilar esa, "kreditlash faoliyati kredit riski mavjud bo'lishining yagona shakli emas", degan fikrni bildirishadi. Bunday fikrdagi, kredit riski qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarda, bank tomonidan kafillik berilganda ham namoyon bo'ladi.

Umuman, muammoli kreditlarning kelib chiqishi faqatgina kredit riskiga bog'liq bo'lmaydi. Zero, valyuta riski, bozor riski, foiz stavkalarining o'zgarishi riski va boshqa qator risklarining mavjudligi hamda ularni to'g'ri baholay olmaslik muammoli kreditlarning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatadi. Muammoli kreditlarning iqtisodiy mazmunini tadqiq etishda risklarning o'rni va ta'siri asos sifatida ishtirok etadi.

Mamlakatimiz bank tizimining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda banklarning faol ishtirok etishi bilan bog'liqdir. Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda bir qancha qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarini daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli kreditlarning mavjudligi sezilarli bo'lmoqda.

Mamlakatimiz bank tizimining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda banklarning faol ishtirok etishi bilan bog'liqdir. Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda bir qancha qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarini daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli kreditlarning mavjudligi sezilarli bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 14-iyuldagi "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi 2696-sonli Nizomiga muammoli kredit deganda sifati "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" kreditlar tushuniladi.




| | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| микдори (трлн.сўм) | 0.364 | 0.674 | 0.581 | 0.392 | 1.325 | 2.141 | 3.169 | 5.784 | 16.974 | 13.992 |
| фоизда | 2.64 | 2 | 1.43 | 0.7 | 1.17 | 1.28 | 1.5 | 2.1 | 5.2 | 3.6 |

1-rasm: Respublika bank tizimida muammoli kreditlarning o'zgarish dinamikasi[3]

3 www.cbu.uz (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti) ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2022-yil holatiga muammoli kpeditlap qoldig‘i 13,99 tpln.so‘mga yaqinlashdi, bu jami kpedit qo‘yilmalarining 3,6 foizini tashkil qilmoqda. Shuningdek, 2016-2021-yillapda ushbu ko‘psatkichda o‘sish tendensiyasini kuzatish mumkin. Muammoli kpeditlapni baptapaf etish uchun ulapning kelib chiqish sabablapini aniqlashimiz muhimdip. Tijopat banklapi kpedit poptfeli tapkibida, muammoli kpeditlap foizi 2013-yildan 2021-yilga qadap 0,54 foizgacha kamayganligi ijobiy holat, ammo 2022-yilga kelib 3,6 foizni tashkil qilmoqda, bu bank tizimidagi muammoli kpeditlap jahon mexanizmida qabul qilingan kpitik 3 foizli ko‘psatkichdan ko‘p, shu sababli bugungi kunda muammoli kpeditlapni kamaytipish banklapning asosiy vazifalapidan bipi hisoblanishi kepak (1-rasm).

Mamlakatimizda muammoli kreditlarning asosiy qismi, ya’ni 8,441 trln so‘mi yoki 83 foizi davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Tahlillarga ko‘ra, O‘zmilliybank (1,9 tln so‘m), O‘zsanoatqurilishbank (1,7 trln so‘m), Asaka bank (1,6 trln so‘m) va Ipoteka bank (1,1 trln so‘m)lar yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Hi-Tech bankning jami kreditlari 160 mlrd. so‘mni tashkil etgani holda muammoli keditlar (NPL) ning hajmi 118 mlrd. so‘m yoki 92,7 foizni tashkil etmoqda. Turkiston bankda esa jami kredit portfeli 686 mlrd. so‘m bo‘lib, shundan 480 mlrd. so‘mi yoki 69,9 foizi muammoli kreditlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2022-yil holatiga ma’lumot, mlrd so‘m[4]

| № | Bank nomi | Kredit portfel | Muammoli kreditlar (NPL) | Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi |
|---|---|---|---|---|
| Jami | | 326 386 | 16 974 | 5,2% |
| Davlat ulushi mavjud banklar | | 280 074 | 15 069 | 5,4% |
| 1 | O‘zmilliybank | 74 033 | 3 305 | 4,5% |
| 2 | O‘zsanoatqurilishbank | 43 148 | 1 630 | 3,8% |
| 3 | Asaka bank | 37 685 | 1 819 | 4,8% |
| 4 | Agrobank | 32 258 | 1 495 | 4,6% |
| 5 | Ipoteka bank | 29 046 | 972 | 3,3% |
| 6 | Xalq banki | 19 596 | 3 857 | 19,7% |
| 7 | Qishloq qurilish bank | 17 496 | 749 | 4,3% |
| 8 | Mikrokreditbank | 10 816 | 642 | 5,9% |
| 9 | Turon bank | 8 129 | 266 | 3,3% |
| 10 | Aloqa bank | 7 754 | 314 | 4,1% |
| 11 | Poytaxt bank | 80 | 2 | 2,2% |
| 12 | O‘zagroeksportbank | 30 | 17 | 55,5% |
| Boshqa banklar | | 46 312 | 1 905 | 4,1% |
| 13 | Hamkor bank | 9 334 | 105 | 1,1% |
| 14 | Ipak yo‘li bank | 6 422 | 223 | 3,5% |
| 15 | Kapital bank | 8 030 | 235 | 2,9% |
| 16 | Orient Finans bank | 3 627 | 29 | 0,8% |
| 17 | Invest Finans bank | 3 774 | 57 | 1,5% |
| 18 | Trast bank | 2 744 | 51 | 1,8% |
| 19 | Davr bank | 2 157 | 22 | 1,0% |
| 20 | Tenge bank | 1 725 | 121 | 7,0% |
| 21 | O‘zKDB bank | 1 557 | 0 | 0,0% |
| 22 | Savdogar bank | 859 | 90 | 10,5% |
| 23 | Universal bank | 767 | 6 | 0,8% |
| 24 | Turkiston bank | 686 | 480 | 69,9% |
| 25 | Ziraat bank | 858 | 21 | 2,5% |
| 26 | Ravnaq bank | 567 | 132 | 23,2% |
| 27 | Xay-Tek bank | 160 | 118 | 92,7% |
| 28 | Madad invest bank | 169 | 20 | 11,8% |

4 Manba: https://cbu.uz// - O‘zbekiston respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 29 | Anor bank | 612 | 6 | 0,9% |
| 30 | Tibisi bank | 345 | 17 | 4,8% |
| 31 | Eron Soderot bank | 14 | 0,1 | 0,6% |
| 32 | Aziya Alyans bank | 1 903 | 144 | 7,6% |
| 33 | Apelsin bank | 0,0 | 0,0 | 0,0% |

Fikrimizcha, tadbirkorlik subyektlarini kreditlash amaliyotidagi dolzarb muammolardan yana biri sifatida bu – tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari tadbirkorlik subyektlari uchun yuqori ekanligidir. 2020-yilda tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi 22,3 foizni tashkil etdi. Bu esa, sezilarli darajada yuqori bo‘lgan foiz stavkasi hisoblanadi. Masalan, 2020 yilda milliy valyutadagi kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi Rossiya Federatsiyasida 6,8 foiz, Qozog‘iston Respublikasida 11,8 foizni tashkil etgan[5]. Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada ajratilayotgan kreditlarning foiz stavkalarini yuqori ekanligiga asosiy ikki sababni ko‘rsatishimiz mumkin ular, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining yuqoriligi hamda tijorat banklari tomonidan jalb qilinayotgan resurslarning qimmat ekanligidir.

Mazkur muammoli kreditlarning asosiy qismi, ya’ni 8,441 trln so‘mi yoki 83 foizi davlat ulushi mavjud tijorat banklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bunda O‘zmilliybank (1,9 tln so‘m), O‘zsanoatqurilishbank (1,7 trln so‘m), Asaka bank (1,6 trln so‘m) va Ipoteka bank (1,1 trln so‘m)lar yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Hi-Tech bankning jami kreditlari 201 mlrd. so‘mni tashkil etgani holda muammoli keditlar (NPL)ning hajmi 179 mlrd. so‘m yoki 89,4 foizni tashkil etmoqda. Turkiston bankda esa jami kredit portfeli 703 mlrd. so‘m bo‘lib, shundan 610 mlrd. so‘mi yoki 86,7 foizi muammoli kreditlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Mazkur muammoni hal qilishning eng asosiy yo‘li davlat ulushi mavjud tijorat banklarini transformatsiya qilish hisoblanadi. Shu munosabat bilan Prezidentimizning “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” to‘g‘risida Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon ijrosi doirasida Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki xalqaro moliya tashkilotlari hamda “PWC”, “KPMG”, “Deloitte” va “McKinsey & company” kabi xalqaro konsalting kompaniyalari banklarni transformatsiya qilish jarayonlariga jalb etildi va bu borada faol ishlar olib borilmoqda.

Odatda, sog‘lom bank tizimining zarur sharti kredit riskini ishonchli boshqarish tizimi hisoblanadi. Chunki bank kredit riski ko‘p sonli qarzdorlar orasida taqsimlanishi kerak. Ayniqsa, iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish davrida kredit portfelini diversifikatsiya qilish masalasini hal etish o‘ta zarurdir.

Garov ta’minoti muammoli kreditni qoplashning so‘nggi chorasi sifatida qaralganda, undan foydalanib muammoli kredit, o‘z vaqtida to‘lanmagan kredit bo‘yicha hisoblangan foiz summasi undiriladi. Hozirgi kunda tijorat banklari muammoli kreditni qoplashni ta’minot turiga qaratganda sudga murojat qiladi. Sud qaroriga asosan garov ta’minotidan foydalaniladi. Garovga oluvchining (kreditorning) talablarini qondirish uchun undiruvni qarzdor garov bilan ta’minlangan majburiyatni o‘zi javobgar bo‘lgan vaziyatlarda bajarmagan taqdirda yoki lozim darajada bajarmaganda garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratishi mumkin. Sud qaroriga asosan kredit garov ta’minoti hisobidan qoplanishi belgilansa, elektron onlayn-auksion shaklidagi ochiq kimoshdi savdosida sotish orqali amalga oshiriladi.

2-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, bankda berilgan kredit va lizing bo‘yicha ta’minot turlari bo‘yicha garov ta’minoti tarkibida O‘zbekiston Respublikasi Huqumati kafolati, ko‘chmas mulk va uchinchi shaxs kafilligi kabi ta’minot turlarining ulushi katta. Bankda garov ta’minoti sifatida obligatsiyalar, uchinchi shaxs kafolatidan umuman foydalanilmagan.

Muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, banklarning muammoli kreditlarini yuzaga kelishida ichki omillar 67 foiz yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich tashqi omillar bo‘yicha bor yo‘g‘i 33 foizni tashkil etadi. Ichki omillarga ta’minotning yetishmasligi 22 foizni, ssuda buyurtmasini o‘rganishda axborotning noto‘g‘ri baholanishi 21 foizni, operatsiya nazoratining zaifligi, hamda dastlabki ogohlantiruvchi belgilarni o‘z vaqtida aniqlanmasligi va ular yuzasidan tegishli choralarning ko‘rmasligi 18 foizni, garov ta’minoti sifatining pastligi 5 foizni, shartnomada ko‘rsatilgan ta’minotni olish imkoniyatining yo‘qligi 1 foizni tashkil etgan. Tashqi omillarga esa kompaniyaning bankrot bo‘lishi 12 foizni, korxona moliyaviy nazoratining kuchsizligi 11 foizni, kompaniyaning bozorda o‘z o‘rnini yo‘qotishi va ichki ijtimoiy muammolar 6 foizni, o‘g‘irlik, muttahamlik 4 foizni jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra tashkil etgan6.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida, xususan, G‘arbiy Yevropa davlatlarining bank kreditlash amaliyotida muddati o‘tgan kreditlarning jami kredit qo‘yilmalar hajmidagi salmog‘ini 3 foizdan oshmasligi normal holat hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chegaraviy miqdori 5 foizni tashkil qiladi.

5 2021-yil 6-noyabr kuni yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi.

6 www.worldbank.org

Garov bank kreditining asosiy ta’minoti sifatida kredit tavakkalchiligini pasaytirish va bankka kredit berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Albatta, bu o‘z-o‘zidan bank garov ta’minotini baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. E’tirof etish joizki, bu borada xorijiy mamlakatlarda uzoq yillar davomida yetarli tajriba, usul va tamoyillar shakllangan.

2-jadval: ATB O‘zsanoatqurilishbankning kredit va lizing bo‘yicha garov ta’minoti to‘g‘risida ma’lumot[7], % da

| № | Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha ta’minot turlari | Ta’minot turlari jami | Shu jumladan | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Depozitlar | O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan kafolatlangan | Transport vositalari | Inventvr | Ko‘chmas mulk | Asbob-uskunalar | Obligatsiyalar | Aktivlar | Uchinchi shaxs kafolati | Uchinchi shaxs kafilligi | Sug‘urta polisi | Ta’minlamagan | Boshqa ta’minot turlari |
| 1 | Jismoniy shaxslar | 6,1 | 0 | 0 | 1,1 | 0 | 2,9 | 0 | 0 | 0 | 0 | 1,9 | 0,2 | 0 | 0 |
| 2 | Davlat korxonalari | 72 | 0 | 47,3 | 0 | 0,1 | 5,9 | 6,1 | 0 | 2,1 | 0 | 10,2 | 0 | 0 | 0,3 |
| 3 | Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar | 5,7 | 0 | 0 | 0 | 0,2 | 4,1 | 0,8 | 0 | 0 | 0 | 0,5 | 0,1 | 0 | 0 |
| 4 | Xususiy korxonalar | 14,7 | 0,1 | 0 | 0,6 | 0,1 | 9,3 | 0,4 | 0 | 0 | 0 | 3,9 | 0,2 | 0 | 0,1 |
| 5 | Fermer xo‘jaliklari | 0,6 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0,6 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 6 | Boshqa banklar | 0,1 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0,1 |
| 7 | Markaziy bank | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 8 | Hukumat | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 9 | Nobank kredit tashkilotlari | 0,1 | 0 | 0 | 0,1 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 10 | Nodavlat notijorat tashkilotlar | 0,5 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0,2 | 0,3 | 0 | 0 |
| 11 | Byudjet tashkilotlari | 0,2 | 0,2 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 12 | Boshqalar | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 13 | Jami kredit va lizing bo‘yicha ta’minot | 100 | 0,3 | 47,3 | 1,8 | 0,4 | 22,8 | 7,3 | 0 | 2,1 | 0 | 16,7 | 0,8 | 0 | 0,5 |

Manba: muallif tomonidan tuzildi.

Xorij amaliyotida kredit uchun qo‘yilayotgan garov ta’minotini baholashda uning likvidliligi, bozor bahosi, bozor konyukturasini o‘zgarishi natijasida sotish imkoniyati hamda investitsion jozibadorligiga alohida e’tibor qaratiladi Shuningdek, kredit oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs bankni tanlaganidan so‘ng garovga qo‘yayotgan ta’minotni baholash jarayonini amalga oshiradi. Chunki, banklarning kreditlash siyosati va garov ta’minotini baholashga qo‘yayotgan talablari bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Bundan tashqari, kreditlovchi bank kredit olish bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlarni qo‘rib chiqishi jarayonida qo‘shimcha ma’lumotlar zarur bo‘lishi yoki baholash bo‘yicha tayyorlangan xulosaning dolzarbligi yo‘qolishi mumkin.

Xorij amaliyotida bank kredit ta’minotini baholashning belgilab qo‘yilgan aniq tamoyillari joriy etilmagan. Biroq, garov ta’minotini baholash jarayoniga e’tibor beradigan ayrim tamoyillar mavjudki, bank kreditini olish uchun baholanayotgan garov ta’minoti mazkur tamoyillarga javob bermagan hollarda bank kredit shartnomaasini imzolamaydi. Xususan, baholash jarayonida quyidagi asosiy tamoyillar bajarilishi maqsadga muvofiq:

- baholanayotgan obyekt kreditning asosiy garovi sifatida huquqiy va jismoniy jihatdan neytralligini ta’minlanganligi;

7 ATB O‘zsanoatqurilishbank hisobot ma’lumotlari.

- baholash jarayonida obyektning likvidligiga ta'sir etuvchi barcha omillarning inobatga olinganligi;
- garov ta'minotini sotishning bir necha variantlarining mavjudligi;
- baholanayotgan obyektning bahosiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan huquqiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar xolisona baholanganligi;
- baholash jarayonida qo'llaniladigan uslublar va yondashuvlar bo'yicha vujudga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar va farqlar konservativ va yuqori talab asosida yondoshish kabilar shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz tijorat banklarida har bir potensial mijoz ta'minotiga nisbatan kredit sifatini baholashda yagona yondashuvga erishish maqsadida keltirilgan reytingga qo'shimcha ravishda kredit ta'minotining ishonchliligini aniqlashning balli tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning uchun avvalambor kreditning qaytarilmaslik riskini hisoblash mexanizmi taklif qilinadi. Bu ko'rsatkich (Kr) ni kredit ta'minotini (Kt) kredit miqdori (Km) ga bo'lish yo'li bilan aniqlashimiz mumkin:

$$Kr=Kt/Km*100\%$$

Kreditning qaytarilmaslik riski asosida, biz kredit ta'minoti sifatiga quyidagicha reyting baholarni berishni taklif qilamiz.

3-jadval: Kredit ta'minotining sifatini baholash mezonlari

| Reyting baho (ball) | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| Kreditning qaytarilmaslik riski | 125 va undan yuqori | 100-125 | 80-99 | 60-79 | 60 dan past |
| Kredit ta'minotining sifat darajasi | kuchli | o'rtacha | qoniqarli | xavfli | muammoli |
| Kredit foizining muddatiga nisbatan imtiyoz | ikki oygacha | O'zgartirishsiz | Ogoxlantirish | Muddatidan oldin qaytarish choralarini ko'rish | |

Manba: muallif tomonidan tuzildi.

Har bir mijoz kredit ta'minoti riski “125” va undan kam ballga baholansa, bankda kredit ta'minoti bo'yicha riskni yuzaga kelish muammosi borligini ko'rsatadi. Bu esa bankda o'z vaqtida chora ko'rilmasa, risk darajasining oshib ketishi bank uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi to'g'risida xulosa qilishga asos bo'ladi. Bunday kreditlar faoliyatini tijorat banki nazorat qilib borishi, majburiy ta'minot talablarni oshirish kabi chora-tadbirlarni ko'rishi lozim.

Odatda banklar tomonidan berilgan kreditni garov ta'minoti hisobidan qoplashga manfaatdor emaslar. Shu bois, berilgan kredit va unga hisoblangan foiz to'lovlarni pul tushumlari hisobidan so'ndirishni ma'qul ko'radi. Buning uchun bank kreditning asosiy summasi va hisoblangan foiz to'lovlarining muddati yetib kelganda uni to'lash nuqtayi nazaridan quyidagi klasslar bo'yicha tasniflashni taklif qilamiz (4-jadval).

Masalan, ishlab chiqarish kompaniyalarida mablag'ning: 70 foizi asosiy vositalarga joylashtiriladi, savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan tashkilotlarda ushbu aktivlar bor yo'g'i 10-15 foizni tashkil etadi Shuning uchun har bir alohida olingan korxona bo'yicha garov turi va ularni baholash tartibi bank hamda kredit oluvchi o'rtasida kelishiladi.

4-jadval: Kreditning asosiy summasi va hisoblangan foiz to'lovlarining klasslar bo'yicha tasniflashi

| Klass | Shartlari |
|---|---|
| 1-klass. | Korxona barcha kredit summasi va unga hisoblangan foiz to'lovlarini tushumlar hisobidan 1 oy ichida so'ndiradi. |
| 2-klass. | Korxona barcha kredit va foiz summasini to'lashga 2 oy ketadi. |
| 3-klass. | Korxona kredit bilan bog'liq barcha to'lovlarni amalga oshirish uchun 3 oylik tushumlarni yo'naltirishi lozim bo'ladi. |

Tadqiqotlar va o'rganishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari qisqa muddatli kreditlar uchun xom ashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni garovga ko'proq qabul qilish maqsadga muvofiq. Qisqa muddatga berilayotgan kreditlarning garov ta'minoti sifatida ko'chmas mulklarni olish ma'qul emas, ko'chmas mulklar asosan, uzoq muddatli kreditlarning garov ta'minoti sifatida qabul qilinadi.

Savdo va ishlab chiqarish vositalari, texnika, avtotransport, inventar va boshqa uskunalar kreditlarning garov ta'minoti sifatida olinganda, ularning bahosi ikkilamchi bozorda sotiladigan jihozlarni o'rganish orqali aniqlanadi. Bunda asosiy e'tibor jihozlarning likvid qiymatiga qaratiladi. Jihozlarning likvid qiymati – bu ushbu

buyumlarni qisqa davr ichida sotish mumkin boʻlgan bahosidir. Odatda jihozlarning likvid bahosi bozor bahosidan 10-30 foiz past boʻladi. Bundan tashqari, garov ta'minotini sotish vaqtida yuz berishi mumkin boʻlgan bahosi toʻgʻridan-toʻgʻri xarajat usuli orqali aniqlanadi Shu boʻyicha bank kredit boʻyicha garov ta'minotining bahosi aniqlanadi, odatda ushbu baho joriy bahoning 50-60 foizini tashkil etadi.

Kredit oluvchi yuqoridagi klasslarning bittasiga toʻgʻri kelsa, bank kredit shartnomasini tuzish boʻyicha tegishli ishlarni boshlaydi. Bank kredit boʻyicha qabul kilayotgan garov turi kredit olayottgan shaxsning faoliyat yoʻnalishi bilan bevosita bogʻliq boʻladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni muammoli kreditlarga aylanmasligini oldini olish maqsadida yuqoridagi takliflarga qoʻshimcha quyidagi takliflarni keltirish maqsadga muvofiq deb oʻylaymiz:

- kredit ta'minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni saqlash va ekspluatatsiya sharoitini doimiy ravishda nazorat qilib borish;
- korxonaning mol-mulkini baholashda bankning mulkni baholash boʻyicha mutaxassisiga koʻproq imkoniyatlar yaratib berish. Chunki mijoz pullik baholash xizmatidan foydalanadigan boʻlsa, uning kredit olgunga qadar qiladigan xarajatlari ortib ketadi.
- garov qiymatini aniqdashga garov boʻyicha joriy etiladigan diskontlar, tavakkalchiliklar va boshqa bir qancha omillar ta'siri inobatga olish kerak;
- garov turi kredit olayotgan obyektning faoliyat yoʻnalishi bilan bevosita bogʻliqligiga e'tibor qaratish lozim. Xususan, ishlab chiqarish korxonalarida asosiy vositalar, savdo-sotiq bilan faoliyati bilan shugʻullanadigan tashkilotlarda tovar-moddiy qimmatliklar, jismoniy shaxslardan koʻchar yoki koʻchmas mulklar, shuningdek, qimmatli qogʻozlar ta'minot sifatida qabul qilinadi;
- xorij amaliyotdagi baholash jarayonida qoʻllaniladigan axborotlarning ochiqligi va shaffofligi tajribasini mahalliy baholash amaliyotida kengroq joriy etish maqsadga muvofiq;
- xorijiy va mahalliy baholovchilar oʻrtasida amaliy va nazariy hamkorlikni qoʻlga qoʻyish bunda xalqaro konferensiya va seminarlarda ishtirok etish, amaliy baholash jarayonlarida ishtirok etish kabilar shular jumlasidandir.

Yuqorida taklif etilgan tavsiyalar va takliflarning barchasini amalga oshirish uchun kredit boʻlimi xodimlaridan qat'iyatlilik hamda mas'uliyatni talab etadi. Barcha amallarning oʻz muddatida toʻliq bajarilishigina tijorat banklarida kreditlarning "muammoli kreditlar"ga aylanishini oldini olish imkoniyatlari vujudga keladi deb hisoblaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:


1. Yang Yang. Does high-quality auditing decrease the use of collateral? Analysis from the perspective of lenders' self-protection // China Journal of Accounting Research 7 (2014) 203–221 www.elsevier.com/locate/cjar
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-noyabrdagi "Kreditorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 4026-son Qarori.
3. Управление деятельностью коммерческого банка (банковский менеджмент)/ Под ред. д-ра экон. наук, проф. О.И.Лаврушина. – М.: Юристъ, 2002, 456-б.
4. Роуз П. Банковский менеджмент. Пер. с англ. – М.: Дело, 1997, 192-б.
5. Abdullaeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash. – T.: Moliya, 2002. 187 b.
6. Tuxtabaev U. A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yoʻllari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun avtoreferati. T, 2006.
7. "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar boʻyicha ehtimoliy yoʻqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi toʻgʻrisida"gi (roʻyxat raqami: 2696, 2015 yil 14 iyul) Nizomi.
8. Constantine Christofides, Ruth Gleeson, Allan Kearns and Rosanna Lynch Framework for enhanced modelling of collateralised lending // Procedia Economics and Finance 29 ( 2015 ) 183 – 194 www.elsevier.com/locate/procedia
9. José A. Castilloa, Andrés Mora-Valenciab, Javier Perotec. Moral hazard and default risk of SMEs with collateralized loans // Finance Research Letters 26 (2018) 95–99 www.elsevier.com/locate/frl
10. Abdikarimova D.R. "Bank kreditlari garov ta'minotini baholash amaliyotini takomillashtirish yoʻllari" PhD ilmiy darajasi olish uchun yozgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2018, 61 bet.
11. Конференция "Управление залогами и проблемными активами: актуальные проблемы и тенденции" / Журнал "Имущественнаые отношения в РФ" № 5 (152) 2014 стр-103.
12. Drobozina L. A. Finansы, denejnoe obrashenie, kredit –Moskva. YuNITI, 2000. - 329 s.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.